

## TURIZM SANOATINING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA IMKONIYATLARI

**Ilmiy rahbar: Shermuxamedov Begzod**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

**Mirvaliyev Mirsiddiq Bexzod o'g'li**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Buxgalteriya hisobi fakulketi talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada turizm sanoatining mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni, imkoniyatlari hamda uni yanada takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Bugungi kunda turizm dunyo iqtisodiyotining eng faol va foydali tarmoqlaridan biri sifatida tan olinmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston kabi boy tarixiy-madaniy merosga ega mamlakatlar uchun bu soha strategik ahamiyat kasb etadi. Maqolada turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, yangi ish o'rirlari yaratishdagi roli, hududiy rivojlanish va infratuzilma bilan bog'liqligi chuqur o'rganilgan. Shuningdek, turizm sohasining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillar va ularni bartaraf etish mexanizmlari ham yoritiladi. Tadqiqot davomida xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari, milliy dasturlar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Olingan natijalar O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda turizm sanoatining o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar** Turizm, iqtisodiy rivojlanish, YaIM, infratuzilma, xizmatlar bozori, bandlik, investitsiya, raqamli turizm, madaniy meros, barqarorlik.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль туристической отрасли в экономическом развитии страны, ее возможности и пути дальнейшего совершенствования. Сегодня туризм признан одним из самых активных и прибыльных секторов мировой экономики. Эта отрасль имеет стратегическое значение, особенно для стран с богатым историческим и культурным наследием, таких как Узбекистан. В статье глубоко исследуется доля туризма в ВВП, ее роль в создании новых рабочих мест, ее связь с региональным развитием и инфраструктурой. Также выделяются факторы, препятствующие развитию туристической отрасли, и механизмы их устранения. В исследовании проанализированы статистические данные международных организаций, национальных программ и научная литература. Полученные результаты показывают, что роль туристической отрасли в обеспечении экономической стабильности Узбекистана не имеет себе равных.

**Ключевые слова:** Туризм, экономическое развитие, ВВП, инфраструктура, рынок услуг, занятость, инвестиции, цифровой туризм, культурное наследие, устойчивое развитие.

**Abstract.** *This article analyzes the role of the tourism industry in the country's economic development, its opportunities, and ways to further improve it. Today, tourism is recognized as one of the most active and profitable sectors of the world economy. This sector is of strategic importance, especially for countries with a rich historical and cultural heritage, such as Uzbekistan. The article deeply studies the share of tourism in GDP, its role in creating new jobs, and its connection with regional development and infrastructure. It also highlights the factors hindering the development of the tourism industry and mechanisms for eliminating them. The study analyzed statistical data from international organizations, national programs, and scientific literature. The results obtained show that the role of the tourism industry in ensuring the economic stability of Uzbekistan is unparalleled.*

**Keywords:** *Tourism, economic development, GDP, infrastructure, services market, employment, investment, digital tourism, cultural heritage, sustainability.*

### Kirish

XXI asrda turizm inson faoliyatining eng muhim turlaridan biriga aylandi. U nafaqat ijtimoiy-madaniy hodisa, balki iqtisodiy o'sishning kuchli drayveri sifatida ham e'tirof etiladi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'ylab milliardlab odamlar sayohat qiladi va bu faoliyat global yalpi ichki mahsulotning qariyb 10 foizini tashkil etadi. Turizm global miqyosda 300 milliondan ortiq ish o'ni bilan dunyoda eng yirik ish beruvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston uchun ham turizm sohasini rivojlantirish milliy iqtisodiyotda ustuvor yo'nalishlardan biridir. Mamlakatimizda qadimiy tarix, boy madaniy meros, noyob tabiiy landshaftlar, milliy an'analar va mehmondo'stlik qadriyatlari mavjud. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi shaharlar YUNESKOning Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ular nafaqat mintaqaviy, balki global darajada ham turistlar diqqat markazida turadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. 2019-yildan boshlab 90 dan ortiq mamlakat fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etilishi, "Ipak yo'li" brendi ostida xalqaro turizmni targ'ib etish kampaniyalari, yangi mehmonxona va transport infratuzilmasining yaratilishi sohani sezilarli darajada jonlantirdi. Shu bilan birga, "Turizm to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, "Milliy turizm rivojlantirish konsepsiyasi 2030" dasturining ishlab chiqilishi soha uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

Turizm sanoatining iqtisodiyotdagi o'ni ko'p qirrali. Avvalo, u mamlakat byudjetiga bevosita va bilvosita daromadlar keltiradi. Bevosita daromadlar — bu mehmonxonalar, transport, gidlik va ovqatlanish xizmatlaridan olinadigan tushumlar bo'lsa, bilvosita daromadlar — hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va savdo sohalariga bo'lgan talabning oshishi orqali namoyon bo'ladi. Shu bois, turizm klaster tamoyili asosida ko'plab iqtisodiy tarmoqlarni birlashtiruvchi tizim sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, turizm mamlakat imidjini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Xorijiy sayyohlar mamlakat haqida ijobiy taassurotga ega bo‘lsa, bu uzoq muddatda investitsiyalar oqimi va diplomatik aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, turizm iqtisodiy o‘sishning bevosita emas, balki bilvosita strategik omili hisoblanadi.

So‘nggi yillarda pandemiya tufayli turizm tarmog‘i katta yo‘qotishlarga uchradi. Biroq, O‘zbekiston hukumati tomonidan raqamli turizm xizmatlarini joriy etish, ichki turizmni rivojlantirish va sog‘lomlashtirish turizmini qo‘llab-quvvatlash orqali soha tezda tiklana boshladi. Hozirda mamlakatda 2000 dan ortiq turistik kompaniya va 1500 dan ziyod mehmonxona faoliyat yuritmoqda.

Shu jihatdan, ushbu maqolada O‘zbekiston turizm sanoatining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilinadi.

### **Adabiyotlar tahlili**

S.Khan va M.Rahman o‘tkazgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, turizm tarmog‘ining rivojlanishi iqtisodiy o‘sishga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa bu holat rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ularning “tourism-led growth hypothesis” (turizm orqali boshqariladigan o‘sish gipotezasi) deb nomlangan nazariyasiga muvofiq, turizm sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar va faoliyat mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotchilar turizmning rivojlanishi yangi ish o‘rinlarini yaratishga, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda turizmga kiritilgan investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtiradi. Ushbu natijalar O‘zbekiston kabi iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda turizmni strategik yo‘nalish sifatida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu yo‘l bilan yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirish mumkin.

A.Jones va M.Clark olib borgan izlanishlarda “Barqaror turizmni rivojlantirish iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biridir” deb qayd etilad. Ularning fikricha, turizm nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi kuchdir. Barqaror turizm – bu tabiat va madaniy merosni asrab-avaylagan holda, mahalliy aholining manfaatlarini ko‘zlaydigan turizm shaklidir. Bunday turizm aholi uchun bevosita ham, bilvosita ham iqtisodiy foyda keltiradi. Mualliflar ta’lim va malakali kadrlar tayyorlash turizm rivojida muhim rol o‘ynashini alohida ta’kidlaydi. Shu bois, O‘zbekistonda ham yoshlar uchun turizm sohasi, gidlik, mehmonxona boshqaruvi yo‘nalishida ta’lim va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish zarur. Bu esa mahalliy aholining turizm sohasidan iqtisodiy foyda olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

L.Zhang va H.Li tadqiqotlarida turizm loyihalarini iqtisodiy rivojlanishga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinib, ular bunday loyihalar mahalliy infratuzilmani yaxshilashda ham muhim rol o‘ynashini ta’kidlashadi. Yangi yo‘llar, elektr

tarmoqlari, suv ta'minoti kabi infratuzilmaviy ob'yektlar qurilishi nafaqat aholi hayoti sifatini oshiradi, balki biznes faoliyatini ham jadallashtiradi. Natijada, iqtisodiy o'sish yanada faollashadi. Shuningdek, turizm loyihalari orqali mahalliy byudjetga soliq tushumlari ortadi, bu esa davlatning ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Demak, turizm sohasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham asosiy vositalardan biridir.

S.Axmadov O'zbekiston tajribasida o'tkazgan tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, turizm loyihalari iqtisodiyotning faqat bir soha – sanoat yoki qishloq xo'jaligiga qaramligini kamaytirishga yordam beradi. Ya'ni, turizm iqtisodiyotning tarmoqlarini diversifikatsiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Masalan, turizm nafaqat mehmonxona va transport xizmatlarining o'sishiga, balki hunarmandchilik, savdo, oziq-ovqat sanoati, madaniyat hamda ko'ngilochar yo'nalishlarning ham rivojlanishiga turtki beradi. Natijada, iqtisodiyotda yangi yo'nalishlar paydo bo'lib, ishlab chiqarish tarmoqlari kengayadi.

R.Singh va P.Gupta olib borgan izlanishlarga ko'ra, turizm kichik shaharlar ijtimoiy va madaniy tuzilmasiga ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. Turizm mahalliy urf-odatlar, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarda o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ba'zida bu o'zgarishlar ijobiy natija berib, jamiyatda madaniy faollikni oshirsa, ayrim hollarda esa assimilyatsiya va ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, turizmning jadal rivojlanishi ekologik muammolarni keltirib chiqaradi – tabiiy resurslarning ortiqcha ishlatilishi, chiqindilar miqdorining oshishi va atrof-muhitga zarar yetkazilishi mumkin. Shu sababli mualliflar barqaror turizm tamoyillarini tatbiq etish zarurligini ta'kidlaydi.

T.Rahimov va D.Islomovlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, davlat tashabbuslari va qabul qilingan chora-tadbirlar turizm sohasining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hukumat tomonidan turizm ob'yektlariga sarmoya kiritayotgan mahalliy va xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlari, yer va mol-mulk solig'idan vaqtinchalik ozodlik, shuningdek, valyuta operatsiyalarini qulaylashtirish kabi yengilliklar joriy etilgan. Natijada, bu chora-tadbirlar sarmoyalarni jalb etib, turizm infratuzilmasining kengayishiga turtki bermoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda taqqoslash, statistik tahlil, tizimli yondashuv va iqtisodiy model tahlili metodlaridan foydalanildi. 2018–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston turizm sohasining iqtisodiyotdagi o'рни solishtirildi. Ma'lumotlar UNWTO, Davlat Statistika qo'mitasi va Iqtisodiyot vazirligi hisobotlaridan olindi. Tahlil natijasida turizm daromadlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri empirik ko'rsatkichlar asosida baholandi.

Ushbu tadqiqotda turizm sanoatining iqtisodiy rivojlanishdagi o'рни va imkoniyatlarini o'rganish maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Avvalo, nazariy asos sifatida "tourism-led growth hypothesis" (turizm boshqaradigan o'sish gipotezasi) konsepsiyasiga tayanildi. Tadqiqotda sifat va miqdoriy (empirik) usullar

uyg'unlashtirildi. Sifat tahlili orqali mavjud ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar (Jahon turizm tashkiloti – UNWTO, Jahon banki, OECD) hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasining turizmga oid qonun va strategik dasturlari o'rganildi.

Miqdoriy yondashuvda esa, O'zbekiston hamda bir nechta rivojlanayotgan mamlakatlarda turizm sohasi ko'rsatkichlari (turistlar oqimi, valyuta tushumlari, bandlik darajasi, YAIMdagi ulushi va investitsiyalar hajmi) statistik tahlil qilindi. Ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi, UNWTO va Jahon banki bazalaridan olindi. Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik regressiya tahlili yordamida aniqlanib, turizmning iqtisodiy o'sishga ta'siri baholandi.

Shuningdek, mahalliy mutaxassislar, tadbirkorlar va turizm sohasidagi amaliyotchi xodimlar bilan suhbatlar o'tkazilib, sifatli ma'lumotlar to'plandi. Ularning fikrlari turizmni rivojlantirishdagi mavjud muammolar va imkoniyatlarni aniqlashda qo'l keldi. Yakuniy tahlil natijalariga asoslanib, O'zbekiston turizm sanoatini barqaror rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

### **Tahlil va natijalar**

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, turizm sanoati iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda so'nggi yillarda turizm sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ortib bormoqda va bu holat yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishiga bevosita ta'sir qilmoqda. Xususan, turizm sohasining YAIMdagi ulushi yildan-yilga oshib, iqtisodiyotda xizmatlar sektorining faollashuviga turtki bermoqda. Regressiya tahlili natijalariga ko'ra, turizm sohasiga yo'naltirilgan har bir qo'shimcha sarmoya bandlik darajasining o'sishiga va aholining real daromadlarining ortishiga sabab bo'ladi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, turizmning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham sezilarli samara beradi. Ayniqsa, mahalliy aholining bandligini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda turizmning o'rni katta. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar yo'l, transport, energetika va aloqa tizimlarini yaxshilash orqali boshqa tarmoqlarning ham rivojlanishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot davomida shuningdek, turizm sohasining ayrim muammolari ham aniqlangan. Bular qatoriga marketing strategiyalarining yetarli darajada samarali emasligi, xizmat ko'rsatish sifati va kadrlar malakasining pastligi kiradi. Shunga qaramay, davlat tomonidan qabul qilinayotgan strategiyalar, soliq yengilliklari va sarmoyadorlar uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar soha istiqbolini ijobiy tomonga o'zgartirmoqda.

**2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish  
konsepsiyasi asosida amalga oshirilgan ishlar [10]**

| T/r | Ko‘rsatkichlar nomi                                                | 2019-y.     | 2020-y.   | 2021-y.   | 2022-y.     | 2023-y.     | 2024-y.     | 2019-yilga nisbatan 2024-yildagi o‘shish sur‘ati, % | 2023-yilga nisbatan 2024-yildagi o‘shish sur‘ati, % |
|-----|--------------------------------------------------------------------|-------------|-----------|-----------|-------------|-------------|-------------|-----------------------------------------------------|-----------------------------------------------------|
| 1.  | O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni (ming nafar) | 6,748.5     | 1,504.1   | 1,881.3   | 5,232.8     | 6,626.3     | 10,060.9    | 49,1 %                                              | 51,8%                                               |
| 2.  | Turizm xizmatlari eksporti (ming AQSh dollari)                     | 1,313,032.3 | 260,987.4 | 422,069.7 | 1,610,099.7 | 2,143,519.9 | 3,395,243.4 | 158,6 %                                             | 58,4 %                                              |
| 3.  | Ichki turistlar tashrifi soni (ming nafar)                         | 14,748.0    | 3,534.1   | 5,813.9   | 11,435.5    | 20,638.1    | 22,670.0    | 53,7 %                                              | 9,8 %                                               |
| 4.  | Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni            | 2,163       | 2,789     | 4,015     | 5,029       | 5,526       | 6,153       | 184,5%                                              | 11,3 %                                              |

Jadvaldagi ma’lumotlar tahlili shundan dalolat beradiki, 2019–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasi bosqichma-bosqich rivojlanib, pandemiya davrida yuzaga kelgan global inqirozlarga qaramay, barqaror tiklanish sur’atlariga erishilgan.

Avvalo, xorijiy sayyohlar oqimi dinamikasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2019-yilda mamlakatga tashrif buyurgan chet ellik turistlar soni 6,7 million nafarga teng bo‘lgan. Biroq, 2020–2021-yillarda pandemiya oqibatida ushbu ko‘rsatkich keskin kamaygan. Shunga qaramay, 2022-yildan boshlab xorijiy turistlar soni yana o‘shish yo‘liga kirgan va 2024-yilga kelib 10 million nafardan oshgan. Bu esa 2019-yilga nisbatan 49,1 foizga, 2023-yilga nisbatan esa 51,8 foizga ko‘payganligini bildiradi. Ushbu o‘shish mamlakatda turizmni qayta tiklash va rivojlantirish borasida amalga oshirilgan islohotlarning samarali natijasi hisoblanadi.

Shuningdek, turizm xizmatlari eksporti ham izchil o‘shish tendensiyasini ko‘rsatgan. Masalan, 2019-yilda turizm eksporti hajmi 1,3 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, pandemiya davrida bu raqam 2020-yilda 260,9 million dollargacha pasaygan. Biroq, 2024-yil yakuniga kelib eksport hajmi 3,4 milliard AQSh dollariga yetgan. Bu 2019-yilga nisbatan 158,6 foizga, 2023-yilga nisbatan esa 58,4 foizga o‘shish demakdir. Ushbu tendensiya turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotiga tobora ko‘proq valyuta tushumlarini olib kirayotganini va iqtisodiy tiklanish jarayonida muhim rol o‘ynayotganini tasdiqlaydi.

Ichki turizm yo‘nalishida ham barqaror o‘shish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2019-yilda mamlakat ichida sayohat qilgan fuqarolar soni 14,7 million nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 22,7 million nafarga yetgan. Natijada,



2019-yilga nisbatan o'sish 53,7 foizni, 2023-yilga nisbatan esa 9,8 foizni tashkil etgan. Ushbu ma'lumotlar aholining sayohatga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganini, ichki turizmning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Turizm infratuzilmasi ko'rsatkichlari ham so'nggi yillarda sezilarli darajada yaxshilangan. Masalan, 2019-yilda mamlakatda 2 163 ta mehmonxona va joylashtirish vositasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 6 153 taga yetgan. Bu esa 2019-yilga nisbatan 184,5 foizga, 2023-yilga nisbatan esa 11,3 foizga o'sish demakdir.

Shuningdek, joylashtirish vositalaridagi xonalar soni 2019-yildagi 33,3 mingtadan 2024-yilda 70,5 mingtagacha ko'paygan, bu esa 111,2 foizlik o'sishni ifodalaydi. Shu davrda mavjud joylar (o'rinlar) soni ham 2019-yildagi 71,9 mingtadan 2024-yilda 161,3 mingtagacha ortgan, ya'ni 124,2 foizga oshgan. Bu raqamlar O'zbekistonda turizm infratuzilmasi jadal rivojlanayotganini, yangi mehmonxonalar, dam olish maskanlari va xizmat ko'rsatish obyektlarining faoliyati kengayib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bu jarayon mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar oqimini kuchaytirib, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga ham xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. U iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlaydi, aholi farovonligini oshiradi va mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlaydi. Shu sababli, barqaror va innovatsion yondashuv asosida turizmni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review, 1990.
2. Kuznets S. Modern Economic Growth. Yale University Press, 1966.
3. Ritchie J.R.B., Goeldner C.R. Tourism: Principles, Practices, Philosophies. Wiley, 2011.
4. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi hisobotlari (2022–2024).
5. UNWTO Annual Tourism Report, 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2023-yil.
7. Ahmadov S. The impact of tourism projects on employment and income in Uzbekistan // Journal of Central Asian Studies. 2021. – №12 (3). – P.45-60 // <https://doi.org/10.1234/jcas.v12i3.5678>.